

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA “TARBIYA” FANI MANBALARI

Mirxalilova Nargiza Akbarovna

CHDPU “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasи o‘qituvchisi

Umirzoqova Nazira Anvarjonovna

CHDPU “Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi” talabasi

ANNOTSATSIYA

Ushbu maqolada, boshlang‘ich sinf tarbiya fani manbalari , tarbiya masalalari , ilmiy-tadqiqot metodlari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar:Tarbiya , manba , metod , ta’lim , masalalar , ilmiy-tadqiqotlar.

РЕСУРСЫ НАУКИ «ОБРАЗОВАНИЕ» В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Мирхалилова Наргиза Акбаровна

Преподаватель кафедры «Методика начального образования» ЧДПУ

Назира Анваржоновна Умирзокова

Студент ЧДПУ «Отдел начального образования»

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация об источниках науки о начальном образовании, проблемах образования, научных методах исследования.

Ключевые слова: образование, источник, метод, образование, проблемы, исследование.

RESOURCES OF THE SCIENCE OF “EDUCATION” IN PRIMARY EDUCATION

Mirkhalilova Nargiza Akbarovna

Teacher of the “Methodology of Primary Education” department of CHDPU

Nazira Anvarjonovna Umirzokova

Student of CHDPU “Elementary Education Department”

ABSTRACT

This article provides information on the sources of primary education science, educational issues, scientific research methods.

Key words: Education, source, method, education, issues, research.

“Tarbiya” fani manbalari va ularni o‘rganish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun zaruriyat hisoblanadi. Biz quyida "Tarbiya" fani manbalaridan ayrimlarini namuna sifatida keltirib o‘tamiz.

“Avesto” kitobida yosh avlodni Ezgu niyatli, Ezgu fikrli va Ezgu faoliyat(amal)li shaxslar sifatida voyaga yetkazish alohida ta’kidlangan. Masalan, yangi milliy g‘oyamizning ikkinchi tamoyili Ezgulikdir.

Qur’oni Karimda va Hadisi shariflarda yoshlarni e’tiqodli, yaxshilik va yomonlikni farqlash ruhida tarbiyalash ta’limi berilgan. Buning natijasida VIII asrdan boshlab to hozirgi kunga qadar Pedagogika fanimizda mazkur tamoyillar tarbiyaning asoslaridan biri bo‘lib kelmoqda. Chunki e’tiqodli, yaxshilik va yomonlikni farqlovchi shaxs insonparvar, xalqparvar va vatanparvar kishi sifatida faoliyat yuritadi.

XI asr mutafakkiri Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida yoshlarniadolatli, qanoatli va bilimli qilib voyaga yetkazish metodologiyasini asoslab bergen. Uning yozishicha, bunday fazilatlarga ega inson eng yetuk hisoblanadi. Sohibqiron Amir

Temur “Tuzuklar” asarida shaxsni ijtimoiy tarbiyalash masalasini talqin qilgan va bunda shaxsda murosa (kompramiss) fazilatini shakllantirish lozimligini ta’kidlaydi. Alisher Navoiy “Hamsa” asarida bir qator komil insonlar timsolini tavsiflab bergan. Misol uchun, “Farhod va Shirin” dostonida Farhodni 9 yoshida komil inson bo‘lib yetishganini va buning uchun u eng yetuk ustozlardan saboq olganligini tasvirlaydi.

Jadid mutafakkiri Mahmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush” pedagogik dramasida bilim olmagan bolaning padarkush bo‘lib yetishini tasvirlab bergan. Chunki bilim tarbiyaning ilmiy va nazariy asosi hisoblanadi.

Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy “Buyuk didaktika” asarida yosh avlodni o‘qitish vositasida tarbiyalashni asoslab bergan.

Fransuz pedagogi Jan Jak Russo “Emil” asarida oila tarbiyasi masalasini talqin qilib bergan. Uning fikricha, oilada bola tarbiyasi bilan oilaning eng yetuk a’zosi shug‘ullanishi kerak. Pedagog bu borada onalarning tarbiyaviy o‘rnini alohida ta’kidlaydi va Emil ismli onaning o‘z farzandini qanday tarbiyalaganligini, bu bu ayol „Kundaliklar,, tutib borganligini ko‘rsatib beradi. Shu ma’noda tarbiya ishi bilan shug‘ullanuvchi shaxsning kundaliklari bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shved pedagogi Iogan Genrix Pistalotsi “Erudiga maktablar” asarida yoshlarni ijtimoiy tarbiyalash va bunda ularni savodxon qilish masalasiga alohida tayanish lozimligini asoslab bergan. Hozirgi kunda butun dunyo xalqlarida amalda bo‘lgan savodxonlikni Alifbedan boshlash tizimini aynan Pistolotsi asoslab bergan.

AQSH pedagoglari, masalan Jon Jems, tarbiyada pragmatizm, ya’ni tarbiyaning amaliy natijalarini ustuvor qo‘yishadi. Unga ko‘ra, shaxsga kelgusi faoliyatida zarur bo‘lgan bilim, fazilatlar va ko‘nikmalar shakllantirilishi kerak.

Keltirilgan manbalardan ma’lum bo‘ladiki, tarbiya jarayonida shaxsda bir talay fazilatlar, tamoyillar va g‘oyalarni shakllantirish lozim bo‘ladi. Har qanday tarbiya jarayonida bu pedagogik merosga tayaniladi. Shaxsga kelgusi faoliyatida zarur bo‘lgan bilim, fazilatlar va ko‘nikmalar shakllantirilishi kerak. Bugungi kunda ham bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ana shu tajribalarni o‘rganishi, o‘zlashtirishi va amaliy

faoliyatda qo‘llay olishi taqozo etiladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ana shu tajribalarni o‘rganishi, o‘zlashtirishi va amaliy faoliyatda qo‘llay olishida “Tarbiya” fani manbalari muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi “Tarbiya” fani manbalaridan amaliyotda o‘z o‘rnida, oqilona foydalansa albatta yuqori natijalarga erishdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi —Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyundagi 422-sonli —Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida Tarbiya fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyundagi 422-sonli Qarori bilan tasdiqlangan —Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun —Tarbiyal fani Konsepsiyasil.
4. Abdujalilova SH. Abdurauf Fitratning —Tarbiyal fani talqini. —Toshkent, 2020. – 36 b.
5. Tarbiya kitobi. 1-4-sinflar uchun darslik. —Toshkent, 2020. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. T., 2004
7. Mirxalilova Nargiza Akbarovna “O‘qish savodxonligini oshirishda PIRLS xalqaro tadqiqotining o‘rni”. Farg‘ona davlat universiteti. 2022 yil 18 noyabr “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman.